

**BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHI
PEDAGOGLARINI KASBIY TAYYORLASHDA MULTIMEDIALI O'QUV
MAJMUALARINI LOYIHALASHTIRISH**

Umirzoqova Malika Mamadi qizi
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
"PSIXOLOGIYA VA MAKTABGACHA TA'LIM"
KAFEDRASI 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan, fan va texnikaning yangi soha hamda bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Ushbu maqoladan pedagogika oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak pedogoglari, maktabgacha ta'lim va maktab o'qituvchilari, pedagoglar hamda talabalar foydalanishlari mumkin.*

Tayanch so'zlar: *fan, texnika, texnologiya, taraqqiyot, kasbiy tayyorgarlik, axborot-ta'lim muhiti, axborotlashtirish, o'quv-metodik majmua.*

Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, intellektual, jismoniy rivojlantirish, barkamol inson qilib tarbiyalash, salohiyatini namoyon eta olishini ta'minlash, bolalarda vatanparvarlik, qonunlarga hurmat, intiluvchanlik, mehnatsevarlik, o'zgarlar mehnatini qadrlash kabi ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashda multimedialli o'quv majmualarini loyihalashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida dunyoning rivojlangan mamlakatlari kabi kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda. Endilikda mamlakatning iqtisodiyoti, insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o'rni axborot-texnologik rivojlanishning holatiga bog'liq bo'lib qolmoqda





Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashda multimediali o'quv majmualarini loyihalash va amalga oshirish tizimining mazmunini ishlab chiqish, nazariy asoslash hamda amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirdik:

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashda multimediali o'quv majmualarini loyihalash va amalga oshirish texnologiyalarining mazmuni va ularni joriy etishga oid tadqiqotlarni tahlil qilish.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashda multimediali o'quv majmualarini loyihalash va amalga oshirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashda multimediali o'quv majmualarini loyihalash va amalga oshirish tizimining mazmunini ishlab chiqish.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashda multimediali o'quv majmualarini loyihalash va amalga oshirish negizidagi yagona axborot-ta'lim muhitini shakllantirish.

Ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar qator tadqiqotlarda amalga oshirilgan. Ta'limni axborotlashtirish vositalarini yaratish va ulardan foydalanishning nazariy asoslari I.V.Robert [24], ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va metodik masalalari esa L.I.Ansiferov [10], V.A.Izvozchikov [19] va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Axborot-dinamik o'rgatuvchi muhitni bo'lajak o'qituvchilarning axborot madaniyatini rivojlantiruvchi omil sifatida tadqiq etish masalalari ushbu ishlarda yoritilgan.

Rus pedagoglaridan L.S.Vigotskiy [15], A.N.Leontev [21], D.B.Elkonin [29]lar bola psixikasiga faoliyatli yondashuv tamoyilining asoschilaridir. Unga ko'ra, bola ruhiy rivojlanishi ijtimoiy tabiatga ega bo'lib, moddiy-ma'naviy madaniyat mahsulotlari vositasida takomillashadi.

Respublikamiz ta'lim tizimida pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar A.A.Abduqodirov [8], A.X.Abdullayev [9], B.Begalov [11], M.H.Lutfillayev [22], N.I.Taylaqov [27], O'.Q.Tolipov [28] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi borasida pedagog olimlardan Sh.Shodmonova [30], N.U.Bikbayeva [12], Z.A.Raxmonqulova va N.Qurbonovalar [23] tadqiqot ishlari olib borganlar.





Metodist olimi Sh.Shodmonovning “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” o‘quv-metodik qo‘llanmasida bolalarni mehnatda tarbiyalash va ular mehnatiga rahbarlik qilishning usul va uslubiyatlari yoritilgan bo‘lib, unda bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirishning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat ekani ta’kidlanadi [30].

N.U.Bikbayeva va boshqalarning “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish” nomli qo‘llanmasida bolalarda matematik bilimlarni an’anaviy usulda shakllantirish masalalari yoritib berilgan [12]. Z.A.Raxmonqulova va N.Qurbonovlar matematik tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar ishlanmasini tavsiya etganlar [23].

S.V.Gurev maktabgacha ta’lim muassasalarining katta yoshdagi bolalariga ta’lim berishda kompyuter texnologiyalari samarali vosita ekanligini ta’kidlaydi [16]. G.E.Djanpeisova ilmiy-tadqiqot ishida turli texnologiyalardan foydalangan holda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining katta yoshdagi bolalarida matematik bilimlarni shakllantirish metodikasini yoritib bergan [17].

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashda multimediali o‘quv majmualarini loyihalash va amalga oshirish muammosining dolzarbligi, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik ta’lim jarayoniga joriy etishning respublikamiz sharoitida yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va pedagogik jihatdan to‘liq tadqiq qilinmaganligi bir qator yechimini kutayotgan muammolarning manbai bo‘lib qolayotganligini ko‘rsatdi.

Bu kabi nomutanosibliklarning manbai va sababi – pedagogik ta’limni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishni ta’minlovchi mavjud jarayonlarni takomillashtirish zaruriyatining mavjudligidadir. Bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy shakllantirishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish, shu asosda oliy ta’lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta’minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, o‘qituvchi shaxsini kasbiy shakllanishining pedagogik asoslarini zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida ishlab chiqish, ularni ta’limga joriy etish psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash kabi muammolar tadqiqot mavzusini «Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachi pedagoglarini kasbiy tayyorlashda multimediali o‘quv majmualarini loyihalash va amalga oshirish» deb belgilanishiga asos bo‘ldi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva, M. (2022). Multimediya texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rnini. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
2. Karimova, D. (2023). Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. Tashkentov, S. (2023). Pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
4. Qodirova, N. (2022). Ta'limda multimediya vositalaridan foydalanish. Farg'ona: Farg'ona Davlat Universiteti.
5. Raxmonov, A. (2023). Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik ijodkorlik. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
6. Ismoilov, S. (2023). Multimediya o'quv majmualarini yaratish usullari. Namangan: Namangan Davlat Universiteti.
7. Nurmatova, L. (2022). Ta'limda zamonaviy metodlar va texnologiyalar. Andijon: Andijon Davlat Universiteti.